

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida*  
*UDK 658.01:6.01*

Mirzakarimov Jasurbek Qo‘chqorboy o‘g‘li

**Mavzu: Korxonalarda innovatsion boshqaruv strategiyasini  
takomillashtirish**

**70411201 - “Menejment” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)**

Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan

**dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. J.X.Rashidov**

**Toshkent-2023**

Magistrlik dissertatsiya ishi "Menejment" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

19 -sonli bayonnoma " 23 " may 2023-y.

Kafedra mudiri: Yo'ldoshev N.Q.

  
imzo

22.05.2023  
sana

Ilmiy rahbar: Rashidov J.X.

  
imzo

23.05.2023  
sana

Talaba: Mirzakarimov J. Q.

  
imzo

23.05.2023  
sana

## ANNOTATSIYA

Hozirgi vaqtda iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida respublikada korxonalarining innovatsion faoliyatini boshqarish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda jahondagi biror mamlakatning iqtisodiy barqaforligi va o'sish sur'ati, madaniyat, fan, ta'lim va boshqa sohalar salohiyatining oshyotganligi bevosita innovatsiyalar yuqori va texnologiyalarning iqtisodiyot tarmoqlariga qay darajada tatbiq etilayotganligi bilan o'lchanmoqda. Bu esa o'z navbatida innovatsion strategiyani ishlab chiqishni taqozo etadi

Shu munosabat bilan ushbu magistrlik dissertatsiyasida korxonalarda innovatsion strategiyani shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari, innovatsion strategiyaning mohiyati, uning korxonalarni boshqarishda tutgan o'rni va ahamiyati, korxonaning innovatsion strategiyasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari, innovatsion strategiyani shakllantirish tamoyillari va baholash mezonlari o'rganilgan.

Shuningdek, mazkur tadqiqotda "DIVA-TEKS" mas'uliyati cheklangan jamiyatining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati va innovatsion strategiyasi tahlil qilingan hamda "DIVA-TEKS" mas'uliyati cheklangan jamiyati innovatsion strategiyasini ishlab chiqishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Tadqiqotda, shuningdek, korxonalarda innovatsion boshqaruv strategiyasini ishlab chiqishning asosiy bosqichlari, uni qo'llash va amalga oshirish yo'llari, korxonaning innovatsion salohiyatini oshirishning innovatsion boshqaruv strategiyasiga ta'sir etishi asoslangan hamda sanoat korxonalarida innovatsion strategiyani samaradorligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

*Tayanch iboralar: innovatsion strategiya, innovatsion salohiyat, tamoyillar, baholash mezonlari, innovatsion boshqaruv strategiyasi, bosqich, samaradorligi, istiqbolli yo'nalishlari.*

## ANNOTATION

Today, in the conditions of digitization of the economy, the issue of managing the innovation activities of enterprises in the Republic is of urgent importance. Currently, the pace and stability of economic growth of a particular country in the world, the rise in the potential of science, culture, education and other spheres are measured directly by the extent to which high technologies and innovations are applied to the sectors of the economy. This in turn necessitates the development of an innovational strategy

In this regard, this master's thesis studied the scientific and theoretical foundations of the formation of innovation strategy in enterprises, the essence of innovation strategy, its role and significance in the management of enterprises, the peculiarities of the formation of innovation strategy of the enterprise, the principles of formation of innovation strategy and evaluation criteria

The study also analyzed the financial and economic activities and innovative strategy of the limited liability company” DIVA-TEKS “and highlighted the specifics of the development of the innovation strategy of the limited liability company” DIVA-TEKS”.

The study also drew up proposals on the main stages of development of innovative management strategies in enterprises, ways of its application and implementation, the impact of the enterprise on the innovative management strategy of increasing its innovative potential, and on promising areas of improving the effectiveness of innovative strategies in industrial enterprises.

*Key phrases: innovation strategy, innovation capacity, principles, evaluation criteria, innovation management strategy, stage, efficiency, promising directions.*

## MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro‘yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro‘yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	8
<b>I BOB. KIRISH.....</b>	<b>9</b>
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	9
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	11
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	11
1.4. Tadqiqotning ob‘ekti va predmeti.....	11
1.5. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	12
<b>II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....</b>	<b>13</b>
2.1. “Korxonalarda innovatsion boshqaruv strategiyasini takomillashtirish ” mavzusidagi ilmiy-nazariy qarashlarga sharh.....	13
2.2. Tadqiqot bilan boliq mahalliy normativ qonun-qoidalar sharhi.....	23
<b>III BOB. METODOLOGIYA.....</b>	<b>28</b>
3.1. Tadqiqot dizayni.....	28
3.2. Ma’lumot yig‘ish jarayoni.....	29
3.3. Qo‘llaniladigan tahlil usullari.....	29
<b>IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....</b>	<b>34</b>
4.1. “DIVA-TEKS” mas’uliyati cheklangan jamiyatining faoliyati tavsifi.....	34
4.2. “DIVA-TEKS” mas’uliyati cheklangan jamiyatining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati va innovatsion strategiyasining tahlili.....	40
4.3. “DIVA-TEKS” mas’uliyati cheklangan jamiyati innovatsion strategiyasini ishlab chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	48
<b>V BOB. XULOSA.....</b>	<b>53</b>
5.1. Tadqiqotdan olingan xulosalar.....	53
5.2. Tadqiqotning asosiy takliflari va tavsiyalari.....	57
5.3. Tadqiqotning cheklovlari va kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar.....	60
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	63

## I BOB. KIRISH

### 1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Mamlakatimizda globallashuv jarayoni kechayotgan, ijtimoiy – iqtisodiy o‘zgarishlar yuqori sur’atlarda yuz berib kelayotgan hozirgi sharoitda to‘qimachilik sanoatini innovatsion rivojlantirish va sifat jihatidan zamon talablariga javob beradigan yuqori pog‘onalarga ko‘tarishni taqozo etadi. Bu esa tarmoqning texnik-texnologik bazasini mustahkamlash, ilmiy qudratini oshirish, dolzarb innovatsion va investitsion loyihalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish natijasida uni sifat va hajm jihatidan yanada yuqori darajaga ko‘tarish imkoniyatini bermoqda.

Respublikamizda innovatsion faoliyatni rivojlantirish yuzasidan Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoev: “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”<sup>1</sup> kabi dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Innovatsion faoliyat sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasi amalda o‘z ifodasini topmoqda. Agar O‘zbekiston Global innovatsion indeksda (The Global Innovation Index) 2015-yilda 141 ta davlat orasidan 122-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2022-yilda 131 ta davlat orasida 40 pog‘onaga yuqorilab, 82-o‘rinni egalladi hamda Markaziy Osiyo yetakchisiga aylandi va Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari orasida Hindiston va Erondan keyin 3-o‘rinni egalladi<sup>2</sup>.

Bugungi kunda sanoat ishlab chiqarishi jarayonlarining murakkablashishi, ilmiy sig‘imi yuqori mahsulotlar ishlab chiqarilayotganligi, korxonaning tashqi

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murajaatnomasi. 22 dekabr 2017 yil.

<sup>2</sup><https://mininnovation.uz/oz/info/global-innovatsion-indeks>.